



Z.SAIDNOSIROVANING CHIN MUHABBAT BAYONI

Shirin Masharipova

Dotsent: **Nodira Yusupova**

Toshkent To'qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: Maqolada o'zbek adibi Oybekning sadoqatli do'sti, oliyjanob umr yo'ldoshi Zarifa Saidnosirovaning "Oybegim mening" kitobidagi mehr va sadoqat ufurib turgan xotiralari, samimiy hislarga boy bo'lgan chin muhabbat tuyg'ulari to'g'risida bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: san'at, adabiyot, yozuvchi, kitob, ijod.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan e'tiborga molik ishlar, xususan, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat, san'at va adabiyot sohalarini izchil rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida ilm va ijod ahlini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kitobxonlik madaniyatini oshirish kabi vazifalar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Bundan yuz yil muqaddam buyuk o'zbek shoiri Abdulhamid Sulaymon o'g'li – Cho'lpon «Adabiyot yashasa, millat yashar!» degan otashin da'vat bilan maydonga chiqqan edi.

Adabiyot – so'z san'atidir. Ijodkor so'z vositasida o'quvchiga ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega. Musavvir tomoshabinni lol qoldirish maqsadida ranglarni mahorat bilan tanlasa, Oybek o'quvchi uchun so'zlarni marjondek teradi. Oybek mohir shoir bo'lgani kabi yetuk romannavis ham edi. U yaratgan «Qutlug' qon», «Navoiy», «Ulug' yo'l», «Oltin vodiidan shabadalar», «Quyosh qoraymas» kabi asarlari o'zbek adabiyotining jahon aro shuhratini yanada oshirdi. Ustoz mahorati yosh yozuvchilar uchun ijod dorilfununiga aylandi. Oybek o'z she'rlari bilan tabiatning butun go'zalligini, shu go'zallik insonga berishi mumkin bo'lgan zavqni ko'rsatib beradi.

Quyosh, nuring to'kaber mo'l- ko'l!



Bahor, ketma, bizning boshlardan.

Yurtimizda qolmasin dasht-cho'l,

Chaman kulsin hatto toshlardan!

Toshkent To'qimachilik va yengil sanoat institutiga Oybekning hayoti va ijodi bilan tanishib, qoldirgan ma'naviy merosini singdirib olish vazifasi yuklatilgan. Shu asnoda Z.Saidnosirovaning "Oybegim mening" kitobini o'qib, maqola dunyoga keldi.

Umr yo'ldoshiga chinakam tirgak, haqiqiy rafika bo'lgan Zarifa Saidnosirova ilk olimi rutbasi qatori sadoqat timsolidir. Zarifa opa bir kam qirq yil davomida ulug' yozuvchining rafikasi sifatida uning xonadonida sevgi va baxt chirog'ini yoqib keldi, ne-ne asarlarining yozilishiga ilhom berdi, Oybek dushmanlar xuruji tufayli tildan mahrum bo'lib, qo'li yozolmay qolganida, uning biyron tili va chaqqon qo'li bo'ldi. Oybek ham umrining oxirigacha o'zining eng tiniq muhabbat tuyg'ulari aks etgan she'rlarini faqat mahbubasiga bag'ishladi.

Z.Saidnosirovaning "Oybegim mening" kitobi orqali bu ulug' san'atkor fe'l-atvori, hayoti va ijodining nozik qirralaridan voqif bo'lasiz. Bu kitob adib qiyofasini jamiki porloqligi bilan ochib beruvchi qimmatli manbaiga aylandi. Elga taniqli olimi, ustoz Oybekning sadoqatli do'sti, oxirgi kunlarigacha hamnafasi bo'lgan Zarifa opa kitobining sarlavhasidanoq mehr va sadoqat ufurib turgan xotiralari samimiy hislarga boyligi bilan ajralib turadi. Asar ichiga chuqurroq kirgan sayin ko'z oldingizda buyuk yozuvchining murakkab hayoti, ilhomi qaynagan go'zal onlar, farzandlariga munosabati yanada yorqinroq gavdalanadi.

Ijodkorni kelajak avlod ham yaqindan tanishi uchun asarlari qatori uy-muzeyi tashkil etilgan. Adib vafot etgan yili 4 yashar bo'lgan nevarasi Oynur opa muzeyga rahbarlik qilib kelishlari bilan birga ikki buyuk shaxsning samimiy sevgilari to'g'risida eshitganlarini bayon qilib beradi.



Akademik Oybek va uning rafiqasi, birinchi o'zbek kimyogari Zarifa Saidnosirova bilan texnikumda tanishadi. Zarifa Saidnosirova «Oybegim mening» kitobida ushbu davrni quyidagicha keltirgandi:

«Oybek buyuk iroda egasi edi. O'sha zamonning ichki ishlar vaziri Oybekdan ham do'st-birodarlariga qarshi ko'rsatmalar so'ragan, ammo u buni rad etgan. Bir kecha uyimiz oldida mashina to'xtab, eshik qoqildi. Ichki ishlar ministrligidan kelgan odam Oybekni olib ketajagini aytdi. Mening oyoq-qo'llarimda mador qolmadi. Qaytib kelib Oybek o'zi bilan nima sodir bo'lganini so'zlab berdi: «To'g'ri ministrning oldiga olib bordilar. Uning kabinetida ikki-uch soat kutdim. So'ng shohi to'nga o'ralib chiqdi.

- Sen yozuvchisan. Yozuvchilar orasida shubhali unsurlar, xalq dushmanlari ko'p. Nega biror marta kelib aytmaisan? Bizga xizmat qilishni istamaisan!» — dedi u dag'dag'a qilib. Men: «Axir men shoirman, adibman, bunday ishlarni eplay olmayman», — dedim. Shundan keyin uning g'azabi ko'pirib ketdi, so'kdi, itdan battar qilib haydadi, meni...

Oybek ko'chaga chiqqanida, unga: «Xafa bo'lmang! Ministrimiz biroz qo'rs, qo'pol odam. Uning ishi shuni taqozo etadi», deganlarida,

— Ministringizga ayting, — debdi Oybek uning so'zlariga javoban. — Agar u ichki ishlar ministri bo'lsa, men she'riyat ministriman. U bugun ministr bo'lsa, ertaga uning o'rniga boshqa odam keladi, men esam adabiyot olamida abadiy ministr bo'lib qolaman!"

Oybek tildan qoladi. Ma'lum muddat o'tgach, xastalik kuchayib, bir qo'li ishlamay, harakatlari cheklangan, xotirasi susayganda ham rafiqasining ko'magi bilan ijoddan to'xtamagan. «Quyosh qoraymas», «Ulug' yo'l» romanlari, «Nur qidirib», «Bolalik», «Bola Alisher» qissalarini bitgan. Shu tarzda Oybek «Xaqgo'ylar» dostonini yozdi. «Nur qidirib» va «Quyosh qoraymas» asarlari ustida ishlay boshladi. Zarifa aya institutdan kelgach, Oybek gapiradi, u yozadi. Oybek 17 yil davomida og'ir xastalik ila mardona kurashadi. Zarifa aya uning kundalik kayfiyatini, tilagini, umidini ko'rib u bilan birga qadam bosadi.



1968 yil 1 iyulda Oybek vafot etdi. Men hayotimning birdan-bir ma'nosi bo'lgan ulug' insondan judo bo'ldim. Bolalarim bir umrga otasiz qoldilar. Men hozir Oybekning o'limoldi kunlarini yozishga qanchalik shaylanmay, qo'lim qaltirab, nafasim tiqilib qolmoqda. Qulog'imda hali ham uning: «O'lyapman, Zarifa, mendan rozi bo'l!» degan so'zlari jaranglab turibdi... Balki Oybekning so'nggi kunlarini keyinroq, musibat alami biroz xira tortgandan keyin yozarman... U kunlarni eslash nihoyat og'ir. Yozsam-yozmasam, baribir, Oybekning so'nggi nafas olishlari har kun, har soat, har daqiqa ko'z oldimdan o'tadi", — deya turmush o'rtog'i umrining so'nggi yillarini qanday o'tkazganini tasvirlaydi rafiqasi.

Adibning rafiqasi, birinchi o'zbek rassomining qizi va birinchi o'zbek kimyogar olimasi Zarifa Saidnosirova “Oybekdagi singari ijodiy kuch, Oybekdagi singari shijoat, Oybekniki kabi sabru matonat o'ylaymanki, uncha-muncha G'arb yozuvchilarida ham bo'lmagan” ligini ushbu asari orqali ifodalab beradi. Adibning rafiqasi, ziyoli Zarifa Saidnosirovaning “Oybegim mening” kitobini o'qib, ochig'i hayrat barmog'imni tashladim. Avvalambor bu oilaning vujudga kelishi tarixi, undan so'nggi ulug' birlik, ulug' yelkadoshlik, bemisl sadoqat ham zamonlar sahnasidan bizga faqat ibrat, hikmat namunasi bo'lib balqiydi.

Adabiyotshunos N.Karimovning yozishicha: “Zarifa Saidnosirova Oybeksiz ham katta alloma bo'lib yetishishi mumkin ekan, ammo Oybek Zarifa Saidnosirovasiz Oybek bo'lishi mushkul ekan. Bu birlik chindan ham vaqtlar silsilasida boshqalar uchun ibrat bo'lib qolsa kerak. Har qanday ijodkor uchun ham dastavval chidamli, vafodor ayol kerak. Chunki ijodkorning injiqligini uncha-muncha ayol zoti hazm qilolmaydi. Lekin Zarifa Saidnosirovaning bu borada baxti kulgan edi. Oybek unaqa injiq emasdi. U ichkuyov bo'lganidayam, bir xonali yotoqda farzandlari bilan yashagandayam, ustiga bo'hton yog'ilib, tor joylarga quvilib chiqqanda ham yozaverar edi. Shuningdek, mansabdan tushirilgan, hatto Yozuvchilar uyushmasi tarkibidan o'chirilganda ham dami ichiga tushib ketmasdi, aksincha, vaqt bo'lganiga shukur qilib tinimsiz yozar edi. Bu ham biz uchun bir



saboq. Chunonchi biz o‘z yalqovligimizni, tanballigimizni, erinchoqpigimizni arzimagan bahonalar bilan oqlamoqchi bo‘lamiz. Oybekdek mehnat qilishga sabrimiz yetmaydi, xolos.”

Oybekning olijanoblighi, shoirlighi, zakovati, sadoqati, sabrlilighi rafiqasiga ilhom berardi. Oilada ikkalasiyam ishdan quvilgan, maoshsiz, nonsiz, Oybekning qaynotasi Saidnosir Mirjalilov repressiyaga uchrab mushkul ahvolga tushib, ocharchilikka yuz tutilgan davrlar ham bo‘lgan. Shunday qiyinchilikli davrlarni ham ikkalasi mardonavor yengib o‘tishgan.

Zarifa Saidnosirova oliy maktabda ta’lim bergan birinchi o‘zbek muallimasi, anorganik kimyoni o‘zbek talabalariga birinchi bo‘lib tanishtirgan, kimyo lug‘atini birinchi tuzgan olima. Shuningdek, rassom, musiqachi, shoira va mana, qo‘limizda kitobi — yozuvchi edi. Ammo u eng avval o‘zini Oybekning vafodor xotini deb bilar, eng katta iftixori ham, eng yirik baxti ham mana shunda edi. Asardan ma’lum bo‘lishicha, Oybek ham asarining ilk nusxasini Zarifasiga o‘qitar edi.

Oybek dahosiga, Oybek salohiyatiga, qolaversa, metindek matonatiga ellik yillar ortdagi avlodlarning bir iqrori, tasannosi deb qaralsa bo‘lar. Zero, zamonlar, davrlar o‘tar, avlodlar o‘zgarar, biroq Oybek fenomeni, Oybekning bizga zamonning beayov zarblari qoshidagi temir irodasi, zahmati, mehnati, umr yo‘ldoshiga bo‘lgan muhabbati namuna bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev.Sh.Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Sharafiddinov O.Adabiyot mangu yashaydi//Jahon adabiyoti.1998.№1-B.4.
3. Asad Dilmurod. Pahlavon Muhammad. – Toshkent: Sharq, 2006.